



## “FUNUN UL-BALOG‘A”DA MIRZO ULUG‘BEK MADHI

Marg‘uba Abdullayeva,  
filologiya fanlari doktori, professor

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206719>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan she‘rlarga diqqat qaratiladi. Ulug‘bek madh etilgan qasidalar va lirik parchalar tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shayx Ahmad Taroziy, “Funun ul-balog‘a”, lirik janrlar, Mirzo Ulug‘bek, madh, qasida, tahlil.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan bo‘lib, turkiy tilda yozilgan. Mazkur asarda an‘anaviy Sharq adabiyotshunosligining besh muhim tarmog‘i haqida fikr yuritilgan. Bular: she‘r navlari, qofiya va radif, badiiy san‘atlar, aruz vazni va muammo janri masalalari. “Funun ul-balog‘a” [1;147] asarida adabiy tur va janrlar to‘g‘risida nazariy ma‘lumotlar berilgan. “Funun ul-balog‘a” muallifi “*Ulamo qoshida nutq ikki navdur: nasr va nazm*”, [1;5] deb ta‘kidlaydi. Ahmad Taroziy nazmni tovusga, nasrni tutiga o‘xshatadi. Nasr va nazmning ibtidosi – fотиha, intihosi – xotimadir, deb ikki adabiy turning o‘ziga xosliklarini ko‘rsatib beradi.

Asar an‘anaviy hamd va na‘t bilan boshlangan. Kirish qismida Mirzo Ulug‘bek haqida shunday fikrlar qayd etilgan. “...saltanat daryosining gavhari va ma‘dalat konining javhari, saxovat boronining abri va shijoat beshasining babri, farosat sipehrining mohi, kayosat mulkining shohi, shahanshohi a‘zam, shahriyori a‘lam, sohibus-sayful-qalam, ma‘dani lutfu karam, moliki riqobi umam, farmondehi, turk, arab va ajam, mag‘isiddin vad-davron Amir Ulug‘bek Ko‘ragon...” [2;6]. Taroziy sohibi zamon Mirzo Ulug‘bekni umrini uzoq, qadrini yuksak, iqbolini doimiy ortib borishini, uning soyasini islom va musulmonlar ustiga oxiratgacha soyabon qilishini Xudodan dou qilib so‘raydi. Bunday niyatning ijodkor tilidan samimiy ruhda madh etilishi Taroziyning Ulug‘bekka bo‘lgan yuksak hurmati va e‘tirofi belgisidir.

Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida Mirzo Ulug‘bek davrida yashab ijod qilgan ijodkorlar ijodidan go‘zal namunalar berib o‘tilgan. Adabiy-nazariy masalalarning amaliy jihatlarini ko‘rsatishda o‘sha davr turkiygo‘y shoirlarining lirik asarlaridan parchalar keltiriladi. Bizga ma‘lumki, Mavlono Lutfiy, Sakkokiy va Ismat Buxoriylar Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab qasidalar yozgan. Shu



kabi forsiygo‘y va turkiygo‘y shoirlarning Ulug‘bekni madh etgan va uning sifatlarini ta‘rifu tavsif qilgan she‘rlaridan namunalar keltirilgan. Tadqiqotimizda shunday she‘riy parchalarga diqqat qaratdik. Taroziy qofiya turlari haqida ma‘lumot berganda barcha bandlarning qofiyadosh bo‘lib kelishiga lug‘z janri misolida bir necha namunalarni keltiradi. Shulardan biri:

Shahriyori zamona, faxri mulk

Sohibi minnat, charxu chor arkon.

Shohi odil, Ulug‘bek ulkim erur.

Dodxoh eshikinda No‘shirvon.

Podshohiki, xidmatinda kamar,

Bog‘ladi, Royu Qaysaru xoqon (17<sup>a</sup>)

Shahriyoriki, dodi adli bila,

Adlidin yer yuzi erur yakson.

Qon bo‘lur charx bag‘ri sahmidin –

Razm holinda olsa el (al)ga kamon.

**Xusravo, nogoh olsa al (al)ga sinon,**

**El (al)ga zarrin sipar tutar Kayvon.**

Oxirgi ikki misrada “zarrin sipar” va “Kayvon” so‘zlarida Ulug‘bekning Samarqandga hokim bo‘lgan yili hijriy 814 raqami yashiringan. 1411 yilda 17 yoshli Ulug‘bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi. U yoshligida fan va san‘at turlariga, ayniqsa, matematika va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Ulug‘bek yaxshi ta‘lim olgan. Ajoyib xotira egasi bo‘lib, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, turk she‘riyatidan yaxshi xabardor bo‘lgan. O‘zi ham she‘rlar yozgan. Uning bir qancha she‘rlari tazkira va tarix asarlarida qayd etib o‘tilgan.

Taroziyning aytishicha, “Agar salotun yo umaro yo vuzaroni o‘ksalar, madh va madhat va tamadduh o‘qurlar. Va agar o‘lgan kishini zikr qilsalar, marsiya derlar” [2;79]. Ko‘rinadiki, muallif ikki janrning poetik belgilarini juda sodda qilib tushuntiradi. Qasidaning kichigi 27 misra yoki undan kichik ham bo‘lishi mumkin deb ta‘kidlaydi. Qasidani lirik janr sifatida bir necha qismlarga tasnif qiladi, har biriga misollar keltiradi. Qasida – husni matla‘, mamduhning adl va insofi, shijoatini zikr qilish, sahovatini yod etish kabi to‘rt qismni o‘z ichiga oladi. Taroziyning aytishicha, bu to‘rt qismdan ortiq madh etish shoirning ixtiyoridadir. Madhdan so‘ng maqsud bayon qilinadi, ya‘ni qasida maqta‘si keladi.

Tarje‘band she‘rlarning beshinchi turi – marsiya va madhiya tariqida bo‘ladi. Shu o‘rinda Taroziy madhiya tarje‘bandga misol qilib Ulug‘bekka bag‘ishlangan bir

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



qasidani berib o‘tgan. A.Hayitmetovning ta’kidlashicha, “Tarje’band shaklida yozilgan ushbu qasida Ulug‘bekni madh etishga bag‘shlangan bo‘lib, uning muallifi aytilmagan. Bizning taxminimizcha, bu she’rning muallifi ham Shayh Ahmad Taroziyning o‘zi bo‘lib, badiiy jihatdan ulug‘ shoir Sakkokiy qasidalarida darajasida va ularning ta’sirida yaratilgan” [2;25]. Qasida matnini keltiramiz:

Eyki aqling haybatidin tutti olam intizom,  
Zoti poking birla taxtu toj topti ehtirom. (19<sup>a</sup>)  
Kecha-kunduz xizmat uchun eshiking yastong‘uchi  
Anbaru kofur otlig‘ ikki quldur subhu shom.  
Notamom erdi jahonda podsholiq oyini;  
Senki paydo bo‘ldung ochunda, bu ish bo‘ldi tamom.  
Abr saqqoyedur, eshikingda doim suv separ;  
Bod farroshyedur – eshiking supurar bardavom.  
Majlisingda sog‘aredur oftobi Zardo‘sh;  
Mahfilingda shishayedur gunbadi fero‘zafom.  
Hazratingdagi tobuqchidurki, saqlar taxtin;  
Hidmatingda Jam ayoqchidurkim, asror elda jom.  
Xisravi iqlimgiru shahriyori tojbaxsh;  
Podshihikim aning davrinda topti din nizom.  
Sarvari mardi salotin, mehtari shohi jahon;  
Mafxari dunyovu din Sulton Ulug‘bek Ko‘ragon.

Madhiyaning mazmuni quyidagicha: Aqling haybatini olam intizor bo‘lib kutdi. Zoti poking bilan toju taxt ehtirom topti. Kechayu kunduz eshigingni oldida ikki quling – subh va shom xizmatingda. Jahonda podsholik o‘yini tugamagan edi, senki paydo bo‘lding ochunda bu ish tamom bo‘ldi. Seryomg‘ir bulutlar eshingga doim suv sepadi. Bod-shamol farroshing bo‘lib har doim eshigingni supuradi. Majlisingda may quyuvchi oftobli Zardo‘st. Majlising joyida feruzafom shishali gunbaz, ya’ni ko‘k osmon. Itoatkor xizmatchilaring taxtingni saqlaydi. Xizmatingda Jamshid oyoqda turib, elingni asraydi. Xisravu iqlimgir, shahriyori tojbaxsh. Sening podshohlik davringda din nizom topdi. Sultonlarning mardi, sarvari, mehtari – shohi jahon. Dunyo va dinning mehvari Sulton Ulug‘bek Ko‘ragon.

Mulkdorikim, oni o‘z soyasidin zul-minan  
Qildi paydo-vu jahonni etti adlidan chaman.  
Xusravikim, majlisining sham‘idur bu oftob;  
Lojuvardiy charx erur sham‘ig‘a bir charxi lagan.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ichsa adli jomidin naxchir bo‘lur shergir;  
Tarbiyat qilsa, yarimtuq pashsha bo‘lur piltan.  
Har so‘zi erur hirad durjinda bir durr-i samin, -  
Kim erur bir so‘ziga yuz ming guhar bori suman.  
Gard ichinda chiqmag‘ay – bu ashqar-i gardun agar –  
Jumladin bo‘lsa kamiti ish kuninda kom-i zan.  
G‘ayratidin gurz olib, maydonda qilsa na‘raye,  
Erigay mumung agar po‘lod bo‘lsa Tahmtan.  
Royatin to intizomi mulk uchun qildi baland,  
Past bo‘ldi, yer yuzinda qolmadi, sho‘ru fitan (19<sup>b</sup>)  
Ey shahonshohiki, adlingdin qilurlar iftihor,  
Insu jinu murg‘u mohiyu vuhushu mo‘ru mor.

Mazkur qasida ikki bandli bo‘lib, har bir bandi 16 misradan jami 32 misrani tashkil qiladi. Qasidaning adabiy-badiiy qimmatini shundaki, unda Ulug‘bekning shaxsiy sifatleri madh etilishi bilan birga, o‘sha davr ijtimoiy-maishiy ahvoli, siyosiy adolat va tarixiy jarayon haqida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

“Funun ul-balog‘a” asarining badiiy san‘atlarga bag‘ishlangan qismida “husnu taxallus” san‘atiga misol qilib Ulug‘bek Ko‘ragon tilga olingan misralarni keltiradi:

*Savdoyidur magar sari zulfingki, zulm etar,  
Bandsen dodu adl bila, xusravi jahon.  
Ma‘murdur boshdin-ayoq yer yuzi tamom,  
Sulton baru bahr Ulug‘bek Ko‘ragon. [2;87]*

Sharh: Agar xayoli buzilib, zulfing sari borsa, zulm etar. Adolat ko‘rsatmoq uchun, mashg‘ulsan xusravi jahon. Shu sabab yer yuzi boshdan oyoq oboddir. Yer, quruqlik va dengizlarni sultonisan Ulug‘bek Ko‘ragon.

Shu qismda “husnu ta‘lil” san‘atida ham shoir fikrini asoslash uchun Ulug‘bekning adolatini dalil qilib keltiradi:

*Falakning zug‘mina kim zulm aylar,  
Qilur Sulton Ulug‘bek adli ehson. (74<sup>b</sup>)*

Taroziy mazkur baytni shunday izohlaydi: “*Bu aningtek bo‘lurkim, mamduhning yaxshi xislatlarig‘a jahd etar, a‘ni (ya‘ni) falakning illatin... adl qilur.*”

Umuman olganda, Shayh Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan bo‘lib, adabiyotshunoslikning besh yo‘nalishdagi muhim nazariy masalalarini o‘sha davr turkiy adabiyotining yetuk namunalari o‘zida jamlaydi. Bu namunalar ichida Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilgan lirik asarlar

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ulug‘bek hayoti va faoliyatini, podshohlik sifatleri va shaxsiy fazilatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина. 1996. –Б. 6.
2. А.Хайитметов. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2002 йил, 5-сон. 87-бет.

